

KONFERENSIYALAR.UZ

ANJUMANLAR PLATFORMASI

# O'ZBEKISTON – 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM ISTIQBOLLARI

IV RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY  
KONFERENSIYA MATERIALLARI

AVGUST, 2025-YIL





# O'ZBEKİSTON — 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM ISTIQBOLLARI

IV RESPUBLIKA ILMİY-AMALİY  
KONFERENSIYASI MATERİALLARI

2025-yil, avgust

TOSHKENT-2025

**ISBN 978-9910-09-259-6**

**O'ZBEKISTON - 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM ISTIQBOLLARI.** IV Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Toshkent: Scienceproblems team, 2025. – 232 bet.

**Elektron nashr:** <https://konferensiyalar.uz>

**Konferensiya tashkilotchisi:** "Scienceproblems Team" MChJ

**Konferensiya o'tkazilgan sana:** 2025-yil, 05-avgust

**Mas'ul muharrir:**

Isanova Feruza Tulqinovna

**Annotatsiya**

Mazkur nashrda "O'zbekiston — 2030: innovatsiya, fan va ta'lism istiqbollari" nomli IV Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi doirasida taqdim etilgan ilmiy maqolalar to'plami jamlangan. Unda O'zbekistonning turli oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari, tarmoq tashkilotlari, mustaqil tadqiqotchilar tomonidan taqdim etilgan ijtimoiy-gumanitar, iqtisodiyot, huquq, biologiya, tibbiyot va boshqa sohalarga oid maqolalar kiritilgan. Maqolalarda ilm-fanning zamonaviy yo'nalishlari, innovatsion texnologiyalar, ta'lim islohotlari hamda barqaror taraqqiyotga oid masalalar muhokama qilingan. To'plam akademik izlanishlar, amaliy tajribalar va ilmiy xulosalarni birlashtirgan holda, fanlararo integratsiyani chuqurlashtirish va ilmiy hamkorlikni kuchaytirishga xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsiya, fan va ta'lism, O'zbekiston 2030, barqaror rivojlanish, ilmiy izlanishlar, fanlararo integratsiya, ilmiy hamkorlik, texnologik taraqqiyot, zamonaviy ta'lism.

**ISBN 978-9910-09-259-6**

**Barcha huqlar himoyalangan.**

© Scienceproblems team, 2025-yil

© Mualliflar jamoasi, 2025-yil

## MUNDARIJA

### TEXNIKA FANLARI

Фозилжонов Хожиакбар

ОБЗОР ТЕСТ ПАТТЕРНОВ ДЛЯ ИССЛЕДОВАНИЯ ПАРАМЕТРОВ ПЭМИ ВИДЕОТРАКТОВ  
CBT.....7-11

*Mamadaliyeva Gulhayo*

QANOT UYUMLARI TENG BO'LMAGAN EGAT OCHGICHINI QANOTINING BALANDLIGINI  
UNING ISH KO'RSATGICHALARIGA TA'SIRI.....12-16

*Iskandarov Orifxon*

TIRIKOTAJ MATOLAR SIFATI: ILMIY-TAHLILY YONDASHUV.....17-19

### TARIX FANLARI

*Bobojonova Zuxra*

NIZOMIDDIN SHOMIY VA SHARAFIDDIN ALI YAZDIYLARNING ZAFARNOMA ASARLARIDAGI  
QIYOSIY FARQLAR.....20-23

*Sattarova Marhabo*

O'ZBEKISTONDA MILLATLARARO TOLERANTLIK VA UNING MADANIY-SIYOSIY  
JARAYONLARGA TA'SIRI.....24-25

*Xasanova Nargiza*

AYOL-QIZLARNING ILMIY IZLANISHLARI VA TADQIQOTLARI HAQIDA .....26-29

*Rustamova Nigora*

MUSTAQILLIK YILLARIDA SAMARQAND VILOYATIDA TURIZM SOHASINI RIVOJLANTIRISH  
ISTIQBOLLARI .....30-32

*Xalilov Baxodir*

YOSHLAR BILAN ISHLASHDA MAKTABDAN TASHQARI TA'LIMNING ROLI: "KAMOLOT"  
TASHKILOTI FAOLIYATI TAHLILI (Navoiy viloyati misolida) .....33-37

*Норов Шуҳрат*

УЧАСТИЯ МОЛОДЁЖНЫХ ОРГАНИЗАЦИЙ В ОБЩЕСТВЕННО-ПОЛИТИЧЕСКОЙ ЖИЗНИ  
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН (на примере Самарканда, Бухары и Навои) .....38-41

*Sattarova Marhabo*

O'ZBEKISTONDA MILLATLARARO TOLERANTLIK VA UNING MADANIY-SIYOSIY  
JARAYONLARGA TA'SIRI (Surxondaryo viloyati 1991-2022 yillarda) .....42-43

### IQTISODIYOT FANLARI

*Qo'chqarov Baxtiyor*

KICHIK BIZNES SUBYEKTALARIDA AYLANMA MABLAG'LAR SAMARADORLIGINI BAHOLASH  
METODIKASI.....44-47

*Abduraimova Nigora*

TABAQALASHTIRILGAN SOLIQ STAVKALARINI QO'LLASH  
BO'YICHA JAHON TAJRIBASI .....48-51

*Sidiqov Jasurbek*

IJTIMOIY INNOVATSIYALARINI TATBIQ ETISHDAGI MUAMMOLAR VA YECHIMLAR.....52-56

*Nematova Dilnoza*

ASOSIY VOSITALARNING ESKIRISHI HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH .....57-63

*Axmedova O'g'ilshod*

O'ZBEKISTONDA MIKROMOLIYA TASHKILOTLARIDA ISLOM MOLIYASI  
INSTRUMENTLARINING JORIY ETILISHI VA UNING ISTIQBOLLARI .....64-66

|  |  |         |
|--|--|---------|
| <i>Abduraimova Nigora</i>                  | TABAQALASHTIRILGAN STAVKALARNI QO'LLASHDAGI MUAMMOLAR VA QARAMA-QARSHILIKLAR .....                             | 67-70   |
| <i>Tuychiyev Anvarjon</i>                  | MAMLAKAT XIZMATLAR KO'RSATISH SOHASINING RIVOJLANISH IMKONIYATLARI .....                                       | 71-75   |
| <i>Asqarov Abrorjon</i>                    | TALABALARDA MOLIYAVIY SAVODXONLIKNI RIVOJLANTIRISH DARAJALARI VA UNI PEDAGOGIK TASHXISLASH XUSUSIYATLARI ..... | 76-85   |
| <i>Yusufjonov Ravshanbek</i>               | INVESTMENTS IN THE AGRICULTURAL SECTOR.....  | 86-88   |
| <b>FALSAFA FANLARI</b>                     |  |         |
| <i>Gafurova Munojat</i>                    | O'ZBEKISTON SHAROITIDA GENDER TENGSIZLIGINING IJTIMOIY TABIYATI VA UNING BARTARAF ETILISH YO'LLARI.....        | 89-92   |
| <i>Abdullayev Sodiqjon</i>                 | ZAMONAVIY GLOBAL MUHITDA SALOMATLIK MADANIYATINING SHAKLLANISH OMILLARI .....                                  | 93-98   |
| <b>FILOLOGIYA FANLARI</b>                  |  |         |
| <i>Yusufova Farangiz</i>                   | HALIMA XUDOYBERDIYEVA SHERIYATIDA BADIY-ESTETIK TALQIN.....  | 99-102  |
| <i>Xoliyorova To'lg'anoy</i>               | O'ZBEK TILI O'QITISH JARAYONIDA KORPUS LINGVISTIKASI VOSITALARIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI .....             | 103-104 |
| <i>Ro'ziyev Temur</i>                      | IJODDAGI SHAXS VA ESTETIK POZITSIYA MUTANOSIBLIGI .....  | 105-112 |
| <i>Eshchanova Mavjuda</i>                  | CLASSICAL CLASSIFICATIONS OF EUPHEMISMS: SEMANTIC, PRAGMATIC AND FUNCTIONAL APPROACHES.....                    | 113-115 |
| <i>Sobirova Shahzoda, Jumayeva Dilfuzা</i> | ALISHER NAVOIY ASARLARINING STILISTIK XUSUSIYATLARI ("Hayrat ul-abror" dostoni misolida) .....                 | 116-119 |
| <i>Bahromjonova Shahnoza</i>               | "MOMOTARO" YAPON XALQ ERTAGI VA UNING FILM VA ANIMEDAGI TALQINI .....  | 120-122 |
| <i>Maxmudova Marjona</i>                   | "DOLZARB 90 KUN" TASHABBUSI DOIRASIDA YOSHLAR BILAN ISHLASHNING YANGI BOSQICHI.....                            | 123-124 |
| <i>Gulmuradova Sobira</i>                  | TURKIYSHUNOSLIKDA ETNOGRAFIZMLARNING O'RGANILISHIGA DOIR.....  | 125-127 |
| <i>Qurbanova Aziza</i>                     | O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA SOMATIK IBORALARINING AHAMIYATI .....   | 128-129 |
| <i>Pulatjonova Muxtasar</i>                | ENGLISH LEARNING DIFFICULTIES OF UZBEK LEARNERS:<br>A QUESTIONNAIRE-BASED STUDY.....                           | 130-136 |

*Qosimova Malika*

LAKUNALARNING TARJIMASHUNOSLIKDA O'RGANILISHI VA ULARNI BARTARAF ETISH  
METODLARI ..... 137-140

*Ayimbetova Damekhan*

ADABIYOTSHUNOSLIKDA TED XYUZ IJODINING O'RGANILISHI: ANIMALISTIK SHE'RIYATI VA  
OBRAZLAR TIZIMI ..... 141-145

*Yo'lidasheva Mahliyo*

"MARTIN IDEN" VA "OQ SO'YLOQ" ASARLARI TARJIMALARINING LINGVOPRAGMATIK  
XUSUSIYATLARI ..... 146-149

## ***YURIDIK FANLARI***

*G'ofurov Ramzbek*

DASTLABKI TERGOVDA JAMOATCHILIKNING ISHTIROKI ..... 150-154

*Turdibaeva Mukhaddas*

JUDICIAL REFORMS OF UZBEKISTAN-A NEW ERA, NEW APPROACHES ..... 155-160

*Gafurova Shoira*

ELEKTRON DALILLARNI TO'PLASH VA TAQDIM  
ETISHNING AMALIY MUAMMOLARI ..... 161-165

*Komilov Avazbek*

PROKURORNING MA'MURIY JAVOBGARLIK TO'G'RISIDA ISH QO'ZG'ATISH HAQIDAGI QARORI  
VA UNING SHAKLI HAMDA MAZMUNIGA QO'YILGAN TALABLAR ..... 166-169

*Babajanov Farrux*

IQTISODIY PROTSESSUAL HUQUQI PRINSIPLARINI SUD XARAJATLARI INSTITUTIDA AKS  
ETTIRISH ..... 170-175

## ***PEDAGOGIKA FANLARI***

*Nuriyllaeva Ugulxon*

ПРОЦЕССЫ ОБРАТНОЙ СВЯЗИ (feedback) И МОНИТОРИНГА: ЭФФЕКТИВНОЕ  
ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ЦИФРОВЫХ ДАННЫХ ВО ВЗАИМОДЕЙСТВИИ МЕЖДУ СТУДЕНТОМ И  
ПРЕПОДАВАТЕЛЕМ ..... 176-181

*Tursinova Zoxida*

TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA O'QITUVCHILARNING PEDAGOGIK MAHORATINI  
BAHOLASH MEXANIZMLARINING SAMARADORLIGINI  
OSHIRISHNING O'ZIGA XOS HUSUSIYATLARI ..... 182-191

*Babayeva Shahnoza*

BO'LAJAK INGLIZ TILI O'QITUVCHILARINING KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIGINI  
RIVOJLANTIRISHNING METODIK MUAMMOLARI VA DOLZARBLIGI ..... 192-194

*Rasulova Baroxon*

KOMPETENSIYAVIY YONDASHUVGA ASOSLANGAN TA'LIMDA FORMATIV VA SUMMATIV  
INNOVATSION BAHOLASH USULLARI ..... 195-199

*Zokirjonov Akramjon*

O'ZBEKISTON — 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM ISTIQBOLLARI ..... 200-202

*Baratova Yulduz*

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI TARBIYALASHDA SHAXSGA YO'NALТИРИЛГАН  
YONDASHUVNING AHAMIYATI ..... 203-206

*Sattoriy Shohruh*

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONIDA  
TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH MEXANIZMLARI ..... 207-210

**TIBBIYOT FANLARI**

*Urunbayeva Dilorom, Xudaybergenova Shaxnoza*  
AUTOIMMUN TIREOIDIT VA SELEN ..... 211-213

*Mamadaliiev Xasanxon*

ПАТОМОРФОЛОГИЧЕСКИЕ ПРОЯВЛЕНИЯ АНТИФОСФОЛИПИДНОГО СИНДРОМА (АФС)  
И УРОВЕНЬ АНТИФОСФОЛИПИДНЫХ АНТИТЕЛ У ЖЕНЩИН-РОДИЛЬНИЦ: КЛИНИКО-  
МОРФОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ..... 214-218

*Maxmudbekov Boburmirzo*

BOLALARDA PASTKI JAG' O'TKIR ODONTOGEN OSTEOMIELITINI KOMPLEKS DAVOLASHDA  
OPERATSIYADAN KEYINGI YARALARNI MAXALLIY DAVOLASH ..... 219-221

**PSIXOLOGIYA FANLARI**

*Usmanova Lilia*  
ЭТАПЫ ЖИЗНЕННОГО ЦИКЛА СЕМЬИ: ПОДХОДЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ В НАУЧНОЙ  
ТРАДИЦИИ ..... 222-225

**SIYOSIY FANLAR**

*Sa'diyev Bahodir*  
ENERGETIKANING RIVOJLANISH OMILLARI VA ASOSIY GLOBAL AKTYORLARI ..... 226-231

## **KOMPETENSIYAVIY YONDASHUVGA ASOSLANGAN TA'LIMDA FORMATIV VA SUMMATIV INNOVATSION BAHOLASH USULLARI**

**Rasulova Barnoxon Abduxakimovna**

Andijon davlat pedagogika instituti, Mustaqil izlanuvchi

Andijon, O'zbekiston

**Annotatsiya.** Maqolada kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'lurma formativ va summativ innovatsion baholash usullariga oid fikrlar yoritilgan. Ta'lim jarayonida bilimlarini to'g'ri baholay olish borasida ma'lumotlar berilgan.

**Kalit so'zlar:** kompetensiya, formativ, summativ, rivojlanish, ta'lim, muvaffaqiyat, usul, bilim.

## **FORMATIVE AND SUMMATIVE INNOVATIVE ASSESSMENT METHODS BASED ON COMPETENCY-BASED EDUCATION**

**Rasulova Barnoxon Abduxakimovna**

Andijan State Pedagogical Institute, Independent Researcher

Andijan, Uzbekistan

**Annotation.** The article discusses innovative methods of formative and summative assessment in education based on a competency-based approach. Information is provided on how to correctly assess knowledge in the educational process.

**Key words:** competence, formative, summative, development, education, success, method, knowledge.

DOI: <https://doi.org/10.47390/259-6/usb-IV/No-43>

**Kirish.** Ma'lumki, tez suratlarda rivojlanib borayotgan "O'zbekistonning ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarning tub zamirida ilmli, barkamol yosh avlodlarni tarbiyalash, ularni o'qitish jarayonida bilimlarini to'g'ri baholay olish, mavjud va rivojlanayotgan bilimlarini turli usul va vositalar orqali rag'batlantirish hozirda dolzarb vazifalardan biri sifatida ta'lim tizimida ilgari surilmoqda. 2022-2026-yillarda maktab ta'limini rivojlanantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risidagi O'zbekiston respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-maydagi PF-79-sonli farmonida" [1;31-b.] maktab o'quvchilarining bilimi va ko'nikmalarini shakllantirish, ularni milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik ruhida tarbiyalash, o'qituvchi kasbi nufuzini va pedagoglarning sifat tarkibini oshirish, darsliklar va o'quv metodik majmualarni zamon talablari asosida takomillashtirish, maktab ta'limi muassasalarining xalqaro standartlarga javob beradigan zamonaviy modellarini barpo etish masalalariga alohida e'tobr qaratilgan. Shuningdek, o'quvchilarining bilim saviyalarini rivojlanantirish, ularni barkamol yosh avlodlar qilib tarbiyalash, shuningdek Vatanga muhabbatli, fidokor va jonkuyar shaxslar sifatida rivoj toptirishda ustozlarning o'rni beqiyosligi va ular ham doimo bilim darajalarini yanada sayqallash uchun harakatdan to'xtamasliklari, o'z ustida timmay ishlashlari zarur [1;21-b.]. Albatta, ta'lim bu – juda ham katta va davomli jarayon hisoblanib, uni bir so'z bilan ta'riflash juda ham mushkul ish. U o'z ichiga ko'plab hodisa va holatlarni, obyekt va subyektlarni jamlagan bo'lib, ta'lim berish, malaka va ko'nikmalar hosil qilish jarayoni, kishini hayotga va mehnatga tayyorlashning asosiy vositasi demakdir. Ta'lim jarayonida ma'lumot olinadi va tarbiya amalga oshiriladi.

Ta'lim tor ma'noda o'qitish tushunchasini anglatsa-da, u faqat turli tipdag'i o'quv yurtlarida o'qitish jarayonini emas, oila, ishlab chiqarish va boshqa sohalarda ma'lumot berish jarayonini ham bildiradi. Ta'limga mazmuni va mohiyati jamiyatning moddiy va madaniy taraqqiyoti darajasi bilan belgilanadi. Ijtimoiy munosabatlar, umumiyligi ma'lumotga bo'lgan ehtiyoj, kishilarning kasbiy tayyoragarligiga, ta'limga haqidagi pedagogik g'oyalarga qarab kishilik jamiyatni taraqqiyotining turli bosqichlarida ta'limga mohiyati, metodi, tashkiliy shakllari o'zgarib borgan sari, u ham rivoj topadi va murakkablashadi. Ta'limga mohiyati — e'tibor bilan dars berish jarayonini, ya'ni pedagogning faoliyatini, umuman o'quvchining bilish, o'rganish faoliyatiga rahbarlik qilishni hamda uqish jarayonini, ya'ni o'quvchi faoliyatini ham bildiradi. Ta'limga jarayoni ta'limga beruvchi — o'qituvchi va ta'limga olayotgan o'quvchilar faoliyatining yig'indisidan iborat bo'lib, ta'limga va tarbiya jarayonida shaxsnинг sifatlari, dunyoqarashi, qobiliyati o'sadi. Shuningdek, ta'limga avlodlar o'rtasidagi ma'naviy vorislikni ta'minlaydi va kishilarning ijtimoiy-tarixiy tajribalari yosh avlodga ta'limga orqali o'tadi. Ta'limga esa o'z navbatida eng avvalo oila, mahalla, maktab va boshqa ilm dargohlari orqali paydo bo'ladi, shakllanadi va rivojlanadi. Barchamizga ma'lumki, o'qituvchi rahbarligida yosh avlodga ma'lumot beriladigan va tarbiyaviy ishlar olib boriladigan o'quv tarbiya muassasasi muktab hisoblanadi. O'zbekistonda muktab, asosan, davlat mulki bo'lib va unda o'qish bepuldir. Shu bilan bir qatorda, oliy o'quv yurtlarida o'qish qisman shartnoma asosida ota-onalar mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi. Muktabda darslar davomida o'quvchilar o'qituvchilar tomonidan baholanadi, rag'batlantiriladi va xatolari ustida ishlanadi. Buning sababi esa, o'quvchilarni o'quv ko'nikma va malakalarini qay-darajada ekanligini aniqlash va ularni yanada sayqallash demakdir.

"Baholash atamasiga nazar solsak, baho (baho berish) (falsafada) — ijtimoiy hodisalar, inson faoliyati, tarbiya va xulqiga bo'lgan munosabat, ularning ahamiyatini, muayyan ahloq me'yordi va tamoyillariga mosligini ko'rsatish (ma'qullash yoki qoralash, rozi bo'lish yoki tanqid qilish)" [2;1-b.]. Baholash — olingan bilimlar bo'yicha ma'lumotlarni tizimli yig'ish, tahlil qilish va ulardan foydalanish demakdir. Baho o'quvchilarning har birini nimalarni bilish, nimalarni tushunishi va nimalarga qodir ekanligi to'g'risida aniq ma'lumot beradi. Baholash samarali ta'limga olish va o'qitishga xizmat qiladi, ularning natijalari jarayonning barcha ishtirokchilari (o'quvchilar, ota-onalar, o'qituvchilar) uchun qiymatli bo'lib, o'quv rejalarini va o'qitish metodikasini yaxshilash maqsadida foydalaniladi. "Baholash — o'quvchilarning yutuqlari, kuchli va zaif tomonlarini hamda keyingi qadamlarni aniqlash orqali oquvchilarning o'zlashtirishni yaxshilashga qaratilgan. U o'quvchilarning bilim darajasini aniqlash va yaxshilash uchun maxsus ishlab chiqilgan va hujjatlashtirilgan vositadi" [4;2-b.]. Shuningdek ta'limga jarayonidagi o'sishni belgilab beradigon me'zon ham hisoblanadi va u o'z navbatida o'quvchining muayyan standartlarga asoslangan fanlarni qaydarajada bilishlik darajasi, shuningdek, o'zining bilim va ko'nikmalariga asoslanib, ma'lum bir mavzuni o'zlashtirish darajasini ko'rsatib beruvchi jarayondir. Har bir sohada bo'lgani kabi ta'limga sohasida ham sohali faoliyat samaradorligini aniq ko'rsatib beruvchi ko'rsatkich bo'lishi lozim. Va ta'limga tizimida bu ko'rsatkich vazifasini bugun baho bajaradi.

O'quvchilar bilimini baholashning yangi tizimlari zamonaviy ta'limga jarayonining ajralmas qismi hisoblanadi. Texnologiyalar rivojlanishi va ta'limga innovatsiyalar joriy etilishi natijasida bilimlarni baholashda turli yondashuvlar paydo bo'lmoqda.

Yangi o'quv yilidan boshlab mazkur maktab ham yangi baholash tizimiga o'tdi va ushbu tizimni Summativ yoki yangi baholash tizimi deb atayotgan bo'lsakda, mazkur tizim joriy qilinishdan oldin, ko'plab xalqaro tajribalar, xususan Yevropa, Osiyo hamda Markaziy Osiyo mamlakatlari, jumladan Qozog'iston, Qirg'iziston, Turkmaniston, shu bilan bir qatorda Rossiya, Turkiya kabi davlatlarning hamda Kembrij dasturining baholash tizimi bilan yaqindan tanishib chiqildi. 2023-2024-o'quv yilidan e'tiboran Respublikamiz bo'ylab 500ta umumta'lim maktablarida mezonlarga asoslangan yangi baholash tizimi tajriba-sinov tariqasida joriy etilgan edi. Joriy o'quv yilidan boshlab esa mazkur baholash tizimiga yana 1000ta maktab qamrab olindi. Ushbu jarayon esa bu baholash tizimining qay darajada samarali ekanligidan dalolat beradi. Ma'lumki, **baholash eng avvalo obyektiv, aniq, barcha uchun qulay va ishonarli bo'lishi shart**. An'anaviy (eski) baholash tizimida ob'ektivlik eng katta muammolardan biri bo'lib kelgan va bunga sabab esa tizimning deyarli 90 foizi inson omiliga asoslanganida bo'lib, o'quvchi bilimiga beriladigan baho birgina o'qituvchining munosabatidan kelib chiqib belgilangan. Mazkur baholash tizimida esa, inson omilini imkon darajasida minimallashtirish ko'zda tutiladi va amaliyotda qo'llaniladi.

Baholash tizimi ikki turga — summativ va formativ baholash tizimiga bo'linadi. Summativ baholash — ma'lum davrda yoki ma'lum bob yuzasidan berilgan bilimlarning darajasini aniqlashga qaratilgan bo'lib, bunda o'qituvchi muayyan miqdorda mavzularni qamrab olgan bobni o'quvchiga yetkazib bergach, o'quvchilarining ushbu bob yuzasidan olgan bilimlari aniqlanadi. Eski baholash tizimida bu nazorat ishi ko'rinishida mavjud bo'lgan. Formativ baholash — o'quvchi dars jarayonida o'qituvchi tomonidan baholanib borilaveradi. Mazkur baholash tizimining asl mohiyati, u o'quvchi bilimini emas, o'qituvchi o'zining darsini baholashi va unga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritishi maqsadida joriy qilingan. Unda o'qituvchi tomonidan o'quvchiga turli maqtov so'zlari orqali ruhlantirish beriladi, biroq shu bilan bir qatorda o'qituvchi o'quvchining ishtiropi orqali darsni qay darajada yetkazib bera olganini analiz qiladi. O'tgan darsda yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklarni e'tiborga oladi va o'z ustida ishladi.

Baholash mezonlari va shakllarini yaratish jarayoni o'quvchilar bilan birlgilikda amalga oshiriladi va biz buni bolalarning qadr-qimmatini shakllantirishning bir usuli deb ham olingan. Shulardan biri formativ baholashdir. Baholash deganda biz bolaning hozirgi yutuqlarini (muvaffaqiyatsizliklarini), oldingi yutuqlari (muvaffaqiyatsizliklari) bilan taqqoslash jarayonini va o'quv natijalarini amaldagi o'quv standartlari tomonidan belgilangan normalar bilan o'zaro bog'liqligini tushunishimiz kerak.

**Formativ baholash** - o'quvchilarining faolligi, bilim olishi, ehtiyojlari va o'sishi haqida ma'lumot beruvchi doimiy jarayon bo'lib, ularning darsdagi faoliyatini kuzatish, uy vazifalarini nazorat qilish, qisqa testlar, so'rovnomalar va shu kabi boshqa shakllarni o'tkazish orqali bevosita amalga oshiriladi. Formativ baholash, O'zbekiston Respublikasi Ta'lim vazirligi tomonidan o'quv faoliyatining doimiy monitoringini o'tkazish qoidalari doirasida ishlab chiqilgan, tasdiqlangan va amaldagi 284-sonli buyrug'iga[3;01-b.] kiritilgan. Bu o'qituvchilar tomonidan olib boriladigan o'quv jarayonining bir qismi bo'lib, o'quv va o'qitish usullarini o'zgartirish orqali o'quvchining tushunchasi va malakasini tubdan oshirib borishga qaratilgan. Formativ baholash o'qituvchilarga ham, o'quvchilarga ham o'quvchining faoliyati va o'rganishi to'g'risida to'g'ridan-to'g'ri va batafsil mulohazalar berib borishga harakat qiladi. Bu o'quv

jarayonida o'quvchilarning ehtiyojlari va taraqqiyotni kuzatadigan doimiy jarayon hisoblanadi. Formativ baholashning asosiy vazifasi o'quv yili uchun qo'yilgan talab va maqsadlarning bajarilishi yoki bajarilmaganligini aniqlashdir. Shuning uchun o'qituvchilar ham o'quvchilar ham o'quv yili davomida erishmoqchi bo'lgan o'quv maqsadlarni aniq bilishlari zarur. O'quv maqsadlari rasmiy shaklda o'qituvchi ish rejalarida aks etib boradi. Yoki o'qituvchi norasmiy shaklda o'quvchilar bilan birgalikda o'quv maqsadlarni aniqlab olishi mumkin hisoblanadi.

Formativ baho o'quvchilar ta'lism jarayonida faol rol o'ynashi kerak degan fikr va mulohazalardan boshlanadi. Formativ baholash: muntazam ravishda rejalashtirilgan holda olib boiladigon, o'quvchilarning bilimlarini o'rganish jarayonida va dars davomida o'quvchilarni savol-javob,o'yinlar, loyihamar, taqdimotlar, guruh faoliyati va boshqa usullar bilan baholash jarayoni hisoblanadi. Uning maqsadi: O'quvchining bilimidagi bo'shliqni aniqlab, uning o'sishi uchun kerakli ko'mkni taqdim etish hisoblanadi. Natijalar esa o'z navbatida o'qituvchiga o'z faoliyati samaradorligini kuzatib borishi va zaruriyati bilan o'qitish metodikasini talil qilish, o'zgartirishlar kiritish uchn qo'llaniladi. Formativ baholashda o'quv maqsadiga erishish uchun zarur bo'lgan qadamlar (mexanizmlar)aniq belgilanib olinadi, ammo bunga erishish uchun baholash yaxshi ishlab chiqilgan bo'lishi kerak. Bu jarayonda o'quvchilar orasida o'z-o'zini baholash va hamkorlik qilishga katta e'tibor qaratiladi va rag'batlantiriladi. O'quvchilarning o'zini o'zi va boshqa o'quvchilarni baholashidan samarali foydalanishimiz mumkin. O'quvchilar qo'yilgan maqsadga erisha olishlari uchun nimalar zarurligini aniqlay bilishlari kerak, buning ularni o'z-o'zini baholashga o'rgatib boorish darkor.

Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'limgidagi formativ va summativ innovatsion baholash usullari o'quvchilarni o'zlashtirilgan axborotlarni o'quv va hayotiy faoliyat turlarining standart va nostandart vaziyatlarida qo'llay olishga, shuningdek turli muommoli vaziyatlarda o'z shaxsiy fikriga ega bo'lishiga tayyorlashi bilan xarakterlanadi. Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan o'qitishning asosiy mohiyati kasbga yo'naltiruvchi fanlardan tashkil qilingan ta'lum-tarbiya jarayonida o'quvchilar tomonidan egallangan bilim, ko'nikma va malakalarni o'z shaxsiy hayoti davomida, shuningdek, kelgusi kasbiy va ijtimoiy faoliyatlarida qo'llay olish kompetensiyalarini shakllantirishga yo'naltira olish sanaladi. O'quvchilar kelgusi hayoti davomida shaxsiy, ijtimoiy, iqtisodiy va kasbiy munosabatlarga kirishishi, jamiyatda o'z o'rnnini egallashi, mazkur jarayonda duch keladigan muammolarning yechimini hal etishi, eng muhim o'z sohasi, kasbi bo'yicha raqobatbardosh bo'lishi uchun zaruriy tayanch kompetensiyalarga ega bo'lishi zarur hisoblanadi.

Ta'lum jarayonida har qanday bilimlarni berish orqali ularning jamiyat, turmush haqida tasavvur va farazlarini tubdan kengaytirishga erishamiz. Shuningdek bilimlarini turli xil vaziyatlarda qo'lay olish, hamda buni o'zlarini avtomatik ravishda tushunib yetishlarini ta'minlash va ularning bilimlarini to'g'ri rag'batlantira olish pedagogning vazifasi hisoblanadi.

Kompetensiyalarni shakllantirilishi, o'quv jarayonida formativ va summativ baholash, o'quvchining faqat tinxilchisi yoki eshitganini takrorlavchiga emas, balki chuqur mushohada yurituvchi, mustaqil fikrini bayon etuvchi, boshqalar bilan o'zaro hamkorlikda ishlovchi, o'zgalar fikrini hurmat qiluvchi, keng dunyoqarashli shaxsga aylantirishdagi o'rni beqiyosdir.

**Adabiyotlar/Литература/References:**

1. 1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-maydagি 2022-2026-yillarda maktab ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risidagi PF-79-sonli farmoni tahririda — qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 31.05.2023-y., 06/23/79/0302-soni
2. 2.Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>
3. 3.Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, <https://lex.uz/ru/docs/-6800815>.<https://help.emaktab.uz/hc/uz/articles/10340142460188-Formativ-baholash> 15.02.2024-y., 09/24/91/0128-son.
4. 4.[https://uz.wikipedia.org/wiki/Baho\\_O'zME](https://uz.wikipedia.org/wiki/Baho_O'zME). Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil.
5. <https://invento.uz/public/upload/files/Admission/School%20Policies%20Uz/Assessment%20Policy%202022-23%20Uz.pdf>.

# O'ZBEKISTON — 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM ISTIQBOLLARI

IV RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI

2025-yil, 05-avgust

**Mas'ul muharrir:**

*F.T.Isanova*

**Texnik muharrir:**

*N.Bahodirova*

**Diszayner:**

*I.Abdihakimov*

O'ZBEKISTON — 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM ISTIQBOLLARI. IV Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Toshkent: Scienceproblems team, 2025. – 232 bet.

**Elektron nashr:** <https://konferensiyalar.uz>

**Konferensiya tashkilotchisi:** Scienceproblems Team

**Konferensiya o'tkazilgan sana:** 2025-yil, 05-avgust

**ISBN 978-9910-09-259-6**

**Barcha huqular himoyalangan.**

© Scienceproblems team, 2025-yil.

© Mualliflar jamoasi, 2025-yil.